

1-topshiriq. Savollarga javob yozing.

O`quvchilar berilgan savollarga javob yozadilar.

2-topshiriq. “Tabiat darsi” va “Ona tili darsi” she’rlarini bir-biriga bog’lab turgan mavzularni ustun shaklida yozing. Topshiriq daftarga ustun shaklida yoziladi.

3-topshiriq. Berilgan she’rlardan ilhomlangan holda qofiyadosh kichik she’rlar yozishni mashq qiling.

O`quvchilar kichik she’rlar yozishni mashq qiladilar.

V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.

Savol-javob o’tkaziladi.

– She’rdan qanday xulosa chiqardingiz?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish. „Ona tili“ darsi“ she’rini yod oling. Boshqa fanlarni ulug’lovchi, qofiyadosh kichik she’rlar yozishni mashq qiling.

10-mavzu: Baxtimizning timsoli(Temur Ubaydullo)

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o`quvchilarni she’r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

b)tarbiyaviy: o`quvchilarda vatanparvarlik, fidoyilik, jonkuyarlik kabi fazilatlarni tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: o`quvchilarning she’rni ifodali o`qish, mazmunini so’zlab berish malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,”Venn“ diagrammasi metodi, savol-javob,ta’limiy o`yinlar.

Dars jahozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:


I.Tashkiliy qism: Salomlashish. Davomatni aniqlash.

O`quvchilarni darsga hozirlash.Ma`naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "Ona tili darsi" she'rini o`quvchilar yoddan aytib beradilar.

"Venn" diagrammasi



III.Yangi mavzu bayoni.

"Quvnoq daqiqa" o`yini. O`quvchilar berilgan rebusni yechadilar.



B	A	Y	R	O	Q
----------	----------	----------	----------	----------	----------

Bugungi mavzu e'lon qilinadi: "Baxtimizning timsoli" she'ri. Muallif Temur Ubaydullo haqida ma'lumot beriladi. Mazmuni tushuntiriladi. Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qiladi.

TEMUR UBAYDULLO

Temur Ubaydullo – bolalar adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan biri. U o‘z ijodini bolalarga she’r, doston, hikoyalari yozishdan boshlagan. Uning “Telefon”, “Qirlar to‘la qizg‘aldoq”, “Hayot guli” kabi yigirmaga yaqin kitoblari chop etilgan bo‘lib, bolalar tomonidan sevib o‘qiladi.

Lug`at ishi:

Boqiy – abadiy

Matonat – qattiq bardosh, chidam

Shijoat – mardlik, jasorat

"Baxtimizning timsoli" she'ri o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

"Kim hozirjavob?" o`yini.

1. She'r mazmunini so'zlab bering.
2. Vatanimiz bayrog'i qachon tasdiqlangan?
3. Shoir she'rda bayrog'imizni nimalarga qiyoslagan?
4. Quyidagi misralarning mazmunini tushuntiring:

Ona yurtim, mangu bo'lomon,

Madhing ila to'lsin keng osmon.

Bayrog'ingga boqqanda jahon,

Do'stlar yuzi bo'lsin nurafshon.

"Maqollar zanjiri" o`yini. O`quvchilar darslikda berilgan maqollarni yod olib, Vatan mavzusidagi maqollar qatorini davom ettiradilar.

**1.Ona
yurting
omon bo'lsa,
Rangi ro`ying
somon
bo`lmas.**




**2.Vatan
qadrini
bilmagan o'z
qadrini
bilmas.**



**3.Vatani
borning baxti
bor,
Mehnati
borning –
taxti.**

"Klaster" metodi. O'quvchilar "Davlatimiz ramzlari" mavzusida klaster tuzadilar.



Mashq daftар bilan ishslash.

1-topshiriq. Rebusni yeching. Berilgan rasmlarni bosh harfi bilan yozing.



B	A	Y	R	O	Q
---	---	---	---	---	---


2-topshiriq. Tez o'yla, qisqa javob yoz!

Mashq daftarida berilgan savollarga javob yozadilar.

3-topshiriq. "Davlatimiz ramzlari" mavzusida klaster tuzing.



4-topshiriq. So'zlarni hosil qiling va she'rdan shu so'z ishtirok etgan misralarni o'qing.



Osmon, ma'no, bayroq, o`g`lim, qizim, yurtim, bo`lsin, tovus.

O`quvchilar shu so`zlarni hosil qiladilar va she`rdan shu so`z ishtirok etgan misralarni o`qiydilar.

V.Darsni yakunlash va o`quvchilarini baholash.

Savol-javob o`tkaziladi.

– Yurtimiz bayrog`i haqida nimalarni bilib oldingiz?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish. *She'rni ifodali o`qing. "Bayrog'imiz – g'ururimiz" mavzusida matn yozing.*